

AJ boshqaruv raisi
 A.X. Xursanov
M.Q.

Direktoriing brumeni vabastari

V.Pak.

mai 2025-yil, 17061 -

Y. Pal

«1» май 2025-йг. 11061-2 -сон

**“O‘ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR KOMBINATI” AKSIYADORLIK
JAMIYATI**

R	U	1	0	2	P	1	0	6	1	T	6
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

 F.R. Abdullayev
 M.Y. Yusupova

2025-yil

1. Ushbu chiqarilishdagi egasining nomi yozilgan aksiyalar turi (oddiy yoki imtiyozli): **Oddiy aksiyalar**

2. Ushbu aksiyalar chiqarilishining shakli: **Hujjatsiz**

3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati (so'm): **100 (yuz)so'm**

4. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning soni (dona): **3 900 000 000 (uch milliard to'qqiz yuz million) dona**

5. Ushbu chiqarilishning umumiy hajmi (so'm): **390 000 000 000 (uch yuz to'qson milliard) so'm**

6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar egalarining huquqlari:
"O'zbekiston texnologik metallar kombinati" aksiyadorlik jamiyatining ("Jamiyat") oddiy aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar quyidagi huquqlarga ega:

- (a) Jamiyatning aksiyadorlari reestriga kiritilish;
- (b) depozitariyidagi depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;
- (c) Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- (d) Jamiyat tugatilgan taqdirda o'ziga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- (e) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- (f) belgilangan tartibda Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborot olish;
- (g) olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- (h) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- (i) o'ziga yetkazilgan zararni o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- (j) o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida birlashmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- (k) qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan, boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish.

Jamiyatning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Jamiyat ustavida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadirlar.

7. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni olinishiga nisbatan jamiyat ustavidagi va/yoki chiqarilish to'g'risidagi qarordagi har qanday cheklashlar:

Jamiyat ustavida ushbu chiqarilgan aksiyalarni sotib olish bo'yicha cheklovlar nazarda tutilmagan.

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar, chiqarish to'g'risidagi qarorga muvofiq, yopiq obuna usulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-maydagi PQ-182-son qaroriga muvofiq, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga belgilangan tartibda joylashtiriladi.

8. Jamiyat ustav kapitalining miqdori (so'm): **257 459 109 100 (ikki yuz ellik yetti milliard to'rt yuz ellik to'qqiz million bir yuz to'qqiz ming bir yuz) so'm**

9. Ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni (turlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi):

Ilgari Jamiyat tomonidan 2 574 591 091 (ikki milliard besh yuz yetmish to'rt million besh yuz to'qqson bir ming to'qson bir) dona oddiy aksiyalar joylashtirilgan.

10. Ilgari joylashtirilgan obligatsiyalar soni (turlari va ko'rinishlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi):

Ilgari Jamiyat tomonidan obligatsiyalar joylashtirilmagan.

11. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining shartlari va tartibi.

11.1. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining usuli (ochiq yoki yopiq obuna):

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-maydagi PQ-182-son qaroriga muvofiq, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga yopiq obuna orqali joylashtiriladi.

11.2. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining muddati:

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar, aksiyalar chiqarilishi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yil ichida joylashtiriladi;

Joylashtirishning boshlanish sanasi - aksiyalarning chiqarilishi to'g'risidagi qaror davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kun;

Joylashtirishning tugash sanasi - ushbu chiqarishning oxirgi aksiyasi joylashtirilgan kun, biroq aksiyalarning chiqarilishi to'g'risidagi qaror davlat ro'yxatiga olingan sanadan boshlab bir yildan ortiq bo'lmagan muddatda.

11.3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining tartibi:

Aksiyalarni joylashtirish Qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisi orqali savdo qoidalariga asosan, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda anderrayterlarni jalb qilish ko'zda tutilmagan.

11.4. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining tashkiliy-huquqiy shaklini o'z ichiga olgan to'liq firma nomi, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni:

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi to'g'risidagi ma'lumotlar:

• To'liq nomi: Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi.

• Tashkiliy-huquqiy shakli: aksiyadorlik jamiyati.

• Yuridik va pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107, Tel.: (998) 71 267 37 42, (998) 71 267 35 92
e-mail: info@deponet.uz

Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni qayd etuvchi investitsiya vositachisi haqida ma'lumot:

- To'liq nomi: "Alp omad invest" mas'uliyati cheklangan jamiyat;
- Kisqartirilgan nomi: "Alp omad invest" MCHJ;
- Manzil: 100077, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Tafakkur ko'chasi, 2-11-uy;
- Telefon – 998 (71) 231-01-39, e-mail: alpomad@bk.ru, veb-sayt: stockinvest.uz;

11.5. Ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi:

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirishda, imtiyozli huquq qo'llamaydi.

11.6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi:

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar nominal qiymati bo'yicha, ya'ni har biri 100 (yuz) so'mdan joylashtiriladi.

11.7. Aksiyalarni to'lash shartlari va tartibi:

Aksiyalar uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida faqat pul mablag'lari bilan naqd va (yoki) naqdsiz shaklda qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Aksiyalar to'lanishiga kelib tushadigan naqd va (yoki) naqdsiz shakldagi pul mablag'lari ko'chirilishi lozim bo'lgan bank rekvizitlari:

Bank ATIB «Ipoteka bank »

MFO: 00401

Hisob raqami: 20208000607098020001.

INN: 311415426

11.8. Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to'lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi:

Mazkur chiqarilishdagi aksiyalarning 60 foizidan kam qismi ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan muddatda joylashtirilgan taqdirda mazkur chiqarilish amalga oshmagan deb e'tirof etiladi.

Aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, Jamiyat tomonidan mazkur holat bo'yicha rasmiy tarzda ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan jamiyatning rasmiy veb-saytida hamda Korporativ axborot yagona portalida e'lon qilinadi.

Aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan kundan boshlab, 10 kun mobaynida aksiyalar uchun qabul qilingan to'lovlar o'rnatilgan tartibda qaytariladi.

12. Emitent tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi (qo'shimcha chiqarilishi) to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq oshkor qilish tartibi:

Aksiyalarning chiqarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar aksiyalar chiqarilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin Korporativ

axborotlar yagona portalida (<http://openinfo.uz>) va jamiyatning rasmiy veb saytida e'lon qilinadi.

Aksiyalarni chiqarish bo'yicha qabul qilingan qarorning asl nusxasi bilan tanishish, shuningdek, ushbu chiqarilish bo'yicha barcha zarur ma'lumotlarni olish uchun quyidagi manzillarga murojaat qilishlari mumkin:

111709, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Vohid Xaydarov ko'chasi, 1-uy.

Murojaat va qo'shimcha bog'lanish uchun: info@uztmk.uz, +998 70 202-10-10.

13. Boshqa ma'lumotlar.

Jamiyatning to'liq va qisqartirilgan nomi:

to'liq nomi: "O'zbekiston texnologik metallar kombinati" aksiyadorlik jamiyati;

qisqartirilgan nomi: "O'zTMK" A.J.